

O' GENRI HIKOYALARINI TARJIMA QILISH PAYTIDA YO'L QO'YILGAN KAMCHILIKLAR

Otaxonova Gulasal Boboxon qizi

Urganch Innovatsion Universiteti Filologiya va tillarni o'qitish (ingliz tili)
yo'nalish talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15272033>

Annotatsiya: O' Genri inson tabiati, ruhiyati va qahramonlarning hayotidagi voqeliklarni kinoya va istehzo orqali ochib beradigan qisqa hikoyalari bilan mashhur. Uning hikoya qilish uslubi ko'pincha kutilmagan burilishlar, istehzoli suhbatlar va achchiq kulguni o'z ichiga oladi, bularning barchasi yozuvchi hikoyalarining ta'sir doirasini doimiy saqlab turishga hissa qo'shadi. Uning hikoyalarini mazmun mohiyatini yo'qotmagan holda turli tillarga tarjima qilish har bir tarjimonning asosiy maqsadlaridan biri hisoblanadi. Ammo uning hikoyalarini tarjima qilish paytida ko'pgina xatoliklarga ham yo'l qo'yishgan. Ushbu maqolada O' Genrining "After twenty years"¹ hikoyasining o'zbek tiliga tarjima qilinganda yo'l qo'yishgan xatolari yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: kinoya, istehzo, ta'sir, tarjima, achchiq, hikoya.

MISTAKES MADE DURING THE TRANSLATION OF THE STORIES OF HENRY

Annotation: Henry is known for his short stories that reveal the realities of human nature, psyche, and characters' lives through irony and irony. His storytelling style often includes unexpected twists, sarcastic dialogue, and wry laughter, all of which contribute to the enduring impact of the author's stories translating his stories into different languages without losing the essence of the content is one of the main goals of every translator. But many mistakes were made when translating his stories. This article highlights the mistakes made when translating Henry's story "After Twenty Years" into Uzbek.

Key words: irony, irony, effect, translation, bitterly, story.

ОШИБКИ, ДОПУЩЕННЫЕ ПРИ ПЕРЕВОДЕ РАССКАЗОВ ГЕНРИ

Аннотация: Генри известен своими рассказами, которые через иронию и иронию раскрывают реалии человеческой природы, психики и жизни персонажей. Его стиль повествования часто включает неожиданные повороты, саркастические диалоги и ироничный смех, и все это способствует непреходящему воздействию рассказов автора. Переводить его рассказы на разные языки, не теряя при этом сути содержания, одна из главных целей каждого переводчика. Но при переводе его рассказов было допущено много ошибок. В данной статье освещаются ошибки, допущенные О' Генри при переводе его рассказа "Спустя двадцать лет" на узбекский язык.

Ключевые слова: ирония, ирония, эффект, перевод, горечь, сюжету

KIRISH

O' Genrining ko'plab asarlari o'zbek tiliga tarjima qilingan bo'lib, talaba yoshlarimiz tomonidan sevib mutolaa qilinadi. Shuningdek uning "After twenty years" hikoyasini rus tilidan

¹ O Henry – 2015 – userfiles.educatorpages.com

Amir Fayzulla tarjima qilgan paytda asarga ko'plab o'zgartirishlar kiritgan va ingliz tilidagi ma'nosi bilan o'zbek tiliga tarjima qilingandagi ma'nosi boshqa boshqa bo'lib qolgan.

ASOSIY QISM

Misol uchun hikoya boshlanganida politsiyachiga nisbatan "looking strong and important"² so'zlari ishlatilgan. Bu so'zlar aslida "ko'rinishidan basavlat va hamma hurmat qiladigan" degan ma'noni anglatishda hikoyada "vajohat bilan o'tib borardi" deya ta'riflangan. Hikoyani davom etar ekanmiz yana ko'plab kamchiliklarni kuzatishimiz mumkin. "He stopped at doors as he walked along, trying each door to be sure that it was closed for the night. Now and then he turned and looked up and down the street. He was a fine-looking cop, watchful, guarding the peace."³ Jumlasini tarjima qilinganda tarjimon "U eshiklar tunda yopiq ekanligiga ishonch hosil qilish uchun yurib borayotgan ko'yi eshiklar oldida to'xtardi. U onda-sonda ortiga o'girilar va boshini ko'tarib, egilib yo'llarni ko'zdan kechirardi. U ko'rinishidan ajoyib, ehtiyotkor, osoyishtalikni himoya qiluvchi politsiyachi edi." desa maqsadga muvofiq bo'lardi. Bu yerda politsiyachi haqida hech qanday "tayoqchasini silkitgancha" yoki "o'z mulking barcha burchaklariga ziyrak nigoh tashlagan" "oyoqlarini hiyo kerib yuruvchi" so'zlari ishlatilmagan.

Hikoya davomida "Now and then" iborasi "allaqayerlarda" deb tarjima qilingan, aslida uning asosiy ma'nosi "onda-sonda" edi. Va "you might see the lights of a shop or of a small restaurant." gapi "tamaki do'konimi yoki tungi bardami, deb tarjima qilingan. Afsuski bu yerda tamaki do'koni, tungi bar so'zlari ishlatilmagan, shu yerda tarjimonimiz sal ehtiyotkorlikda tarjima qilsalar hikoyaning ma'nosi o'zgarib ketadi. "Near the door of a darkened shop a man was standing." Gapining asosiy ma'nosi "Qoraytirilgan do'kon eshigi yonida bir erkak turardi." hisoblanadi. Lekin bu yerda tarjimonimiz salgina mubolag'adan foydalangan holda "temir buyumlari sotiladigan do'kon eshigi yonida og'zida o't oldirilmagan sigareta tishlagan bir odam turardi." deyilgan tarjimada.

Hikoyani o'qishda davom etar ekanmiz ikkita do'st uchrashishni rejalashtirgan restoran "Ota Jo Bredi" deyiladi lekin restoranning asl nomi 'Big Joe' Brady's restaurant edi. Notanish kishining yigirma yil oldin rejalashtirilgan uchrashuvi haqida eshitgan politsiyachi unga "Besh yil oldin, - o'sha bino buzib tashlandi deydi. Lekin bu yerda binoning buzilib tashlangani haqida ma'lumot berilmagan edi. Yozuvchi notanish kishini tasvirlar ekan "The man near the door had a colourless square face with bright eyes, and a little white mark near his right eye. He had a large jewel in his necktie."⁴ shunday deydi. Bu jumlaning o'zbek tiliga tarjima qilar ekanmiz "Eshik yonidagi kishining rangsiz to'rtburchak yuzi bilan yorqin ko'zlari, va o'ng ko'zi yonida kichkinagina oq dog'i bor edi. Uning galstukida katta qimmatbaho tosh bor edi." degan ma'no kelib chiqadi. Biroq hikoyada "Notanish kishi gugurt "chirt" yoqib, sigara tutatdi. Gugurt alangasida uning yuzi, qirra jag'i, o'tkir ko'zlari va o'ng qoshi yonidagi kichkina oq chandiq ko'rindi. Yupqa bo'yinbog'idagi yirik olmos ko'zli yo'g'nog'ich yaraqlab ketdi." talqinida tarjima qilingan. Hikoyada "best friend" so'zini "eng yaxshi o'rtog'im" deb tarjima qilingan lekin best friendning asl ma'nosi eng yaqin do'st hisoblanadi. Uning davomida "I'll be glad about that," jumlasini "bundan sira pushaymon bo'lmayman" deydi, aslida bu yerda bundan mamnun bo'lardim desak maqsadga muvofiq bo'lar edi.

² Advanced English Dictionary

³ O' Henry "After twenty years" page 58

⁴ O Henry "After twenty years" page 59

“I’ve had to fight for my success. In New York a man doesn’t change much. In the West you learn how to fight for what you get.” jumlasini tarjimon “Unga gap uqtirgunimcha naq ona sutim og‘zimga kelgandi. Nyu-yorkda esa odam to‘nkalgicha qolib ketadi. Faqat g‘arb odamni charxlaydi.” Talqinida tarjima qilganlar. Bu yerda tarjimon boshqacharoq yondashishi kerak edi. Misol uchun “If he isn’t here at ten, are you going to leave?” “I am not!” degan gapning ma’nosi “ Agar u soat o‘nda shu yerda bo‘lmasa, siz ketasizmi?” –deydi politsiyachi va unga javoban notanish kishi “ yo‘q unday qilmayman” deydi. Tarjimada esa boshqacharoq berilgan ya’ni, politsiyachi “ Juda soniyama-soniya aniq kelishini talab qilmassiz undan?” deganida “-ha, albatta” deyilgan bu yerda tarjimalar bir biriga biroz mos kelmay qolgan. O‘ Genrining asar va hikoyalarini o‘qir ekanmiz unda insonning ayanchli taqdiri kulgi ostida yoritib berilganligiga guvoh bo‘lamiz. Va buni biz yoshlar o‘qiganimizda uning asarlarini o‘zgarishsiz asl ma’nosida bo‘lishini hohlaymiz. Uning “Yigirma yil oldin” hikoyasini o‘qishda davom etarkanmiz unda “There was now a cold rain falling and the wind was stronger. The few people walking along that street were hurrying, trying to keep warm. And at the door of the shop stood the man who had come a thousand miles to meet a friend. Such a meeting could not be certain. But he waited.” jumlasini berilgan va bu hikoyada “ Endi yomg‘ir maydalab, shivalab yog‘a boshlagandi, o‘qtin-o‘qtin esib turgan shamol ham bir maromga o‘tib izg‘iringa aylangan. Yoqalarini ko‘tarib va qo‘llarini cho‘ntaklariga suqib olgan siyrak yo‘lovchilar ovoz chiqarmay, shoshib o‘tib ketishardi. Necha ming mil yo‘l bosib kelgan kishi esa do‘stiga bo‘lgan qariyb be‘mani va’dasida turmoq uchun sigarasini tortgancha kutib qolaverdi.” deya tarjima qilingan bo‘lsada aslida uning ma’nosi “Hozir sovuq yomg‘ir yog‘a boshladi va shamol kuchayotgan edi. Ko‘chalarda biroz odamlar shoshgancha, o‘zlarini issiq saqlagan holda yurib borishardi. Va do‘kon oldida do‘sti bilan uchrashish uchun ming mil yo‘lni bosib o‘tgan kishi turardi. Uchrashuv aniq emasdek edi. Ammo u kutardi.” talqinida bo‘lsa yaxshi bo‘lard. Notanish kishi do‘stini kutib turarkan oradan biroz vaqt o‘tganidan keyin uning yoniga bir kishi keladi va “ –Bu senmisan, Bob? “ deydi o‘shanda u kishi uning do‘sti ekanligini payqaydi xuddi o‘sha joyiga kelganida yozuvchi “cried the man at the door” jumlasidan foylanadi, bu jumla hikoyada shunday tarjima qilingan “ O‘sha zahoti javob qaytardi unisi” degan. Agar tarjimon “ kishi eshik oldida yig‘ladi” desa talaba yoshlarning tushunishi oson bo‘lard. Hikoya oxirlab borarkan ikki do‘st birgalikda suhbat qurib, do‘sti “I wish it were here, so that we could have another dinner in it.”⁵ deydi. Tarjimada bu “Afsus... O‘shanda sen bilan ikkovimiz kechki ovqatni qanaqangi tushirgandik.” deyilgan, vaholanki bu yerda “Qani edi o‘sha restoran hozir ham shu yerda bo‘lganida, yana bir bor kechki ovqatni shu yerda qilsak edi.” deyilganida nur ustiga a’lo nur bo‘lar edi. Ikki og‘aynilar suhbat qurisharkan do‘stini shuncha kutgan kishi yonidagi do‘stiga murojat qiladi. “I never thought you were so tall.” tarjimasi “men seni bunchalik uzunsan deb o‘ylamagan ekanman” deydi. Bu jumla shunday tarjima qilingan “Esimda, sen mendan ikki-uch dyum pastroq eding.” deydi. “We’ll go to a place I know, and have a good long talk about old times.” The two men started along the street, arm in arm. The man from the West was beginning to tell the story of his life.” bu yerda hikoyani tarjimon shunday talqin qilganki, “Men bir kunjakni bilaman, ikkovimiz u yerda xumordan chiqquncha gaplashamiz, eski paytlarni eslaymiz. Ular bir-birlarining qo‘ltig‘idan olib, yo‘lga tushishdi. Bob G‘arbda omadi yurishgani, ishdagi muvaffaqiyatlari haqida labi-labiga tegmay hikoya qila ketdi. Boshini yoqasi ichiga birato‘la tiqib olgan sherigi esa uni qiziqish bilan tinglar edi.” deya tarjima qilgan. Lekin bu yerda hech qanaqa kunjak haqida yoki xumordan chiqquncha gaplashish haqida gap ketgan emas,

⁵ “O’ Henry After twenty years” page 60

yoʻzuvchi bu yerda “uzoq va maroqli suhbat quramiz” degan. Va uning davomida “arm in arm” iborasini “bir-birining qoʻltigʻidan olib” deya tarjima qilgan boʻlsa ham uning maʼnosi aslida “qoʻl ushlab” degan maʼnoni beradi va davomida “Gʻarblik kishi oʻzining hayoti haqida hikoya qilishni boshlagan edi.” deyilgan, lekin tarjimon buni oʻzgartirmagan holda tarjima qilsalar yanayam yaxshi boʻlardi. Hikoyaning oxiriga yaqinlashar ekanmiz “shop bright with electric lights” gapini dorixona doʻkoni chirogʻi deya tarjima qiladi lekin aslida bu yerda elektr yorugʻligi haqida gap ketadi, hech qanaqa dorixona soʻzi ishlatilmaydi. Va oʻsha chiroq yorugʻligida bir birining yuzini koʻrishadi va doʻstini kutgan kishi aytadiki siz mening doʻstim emassiz, yigirma yil koʻp vaqt boʻlsa ham kishi burnining shaklini oʻzgartirish uchun yetarli emas “but not long enough to change the shape of a man’s nose.” deydi lekin buni hikoyada “kishining rimcha burni tugmachadek boʻlib qoladigan darajada uzoq emas.” deyilgan. Va nihoyat rostdan ham bu kishi uning doʻsti emas politsiya hodimi boʻlib chiqadi. “Chicago cops thought you might be coming to New York. They told us to watch for you. Are you coming with me quietly? That’s wise.” yaʼni “Chikago politsiyasi sizni New Yorkka kelishingiz mumkun deb oʻylagan edi. Ular bizga sizni kuzatishimizni aytdi. Men bilan tinchgina ketasizmi? Bu oqilona ish.” shaklida boʻlishi kerak edi ammo tarjimon buni “Chikagoda xuddi shuni taxmin qilishgandi, siz, albatta, bizning yerlarga kelib-ketishni kanda qilmaysiz, siz bilan suhbat qurishimiz mumkinligini ham xabar qilishgandi. Xoʻsh, ortiqcha shovqin-suron koʻtarish niyatingiz yoʻqmi, mabodo? Unday boʻlsa oqilona yoʻl tutganingizdan minnatdorman.” degan. Va u kishiga politsiyachi xat beradi, xatni oʻqish jarayonida “His hand began to shake a little as he read.” yaʼni “Xatni oʻqib boshlaganida uning qoʻli ozgina qaltirashni boshladi.” shaklida boʻladi, tarjimon esa buni xatni oʻqib boʻlgach deydi. Va oxirida “I didn’t want to arrest you myself.” Men seni oʻzim hibsga olishni hohlamadim deydi, tarjimada esa men bu ishni oʻzim qila olmasdim deyilgan. Tarjimon shu joylariga eʼtibor qaratgan holda tarjima qilsalar maqsadga muvofiq boʻlar edi.

XULOSA

Oʻ Genrining qisqa hikoyalari kinoya va istehzoning mohirona uygʻunligi boʻlib, ularning har biri hikoyani ham qiziqarli, ham mazmunli boʻlishini taʼminlab beradi. Lekin tarjima qilish jarayonida uning asl maʼnosi yoʻqolishi mumkin. Shu sababli ham biz bu mavzuni yoritib chiqdik. Har bir tarjimon hikoya yoki asarni tarjima qilar ekan uning maʼnosini oʻzgartirmagan holda odamlarga yetirib berishga harakat qilishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:

1. Oʻ Henri. “Yigirma yildan soʻng”. “Yangi asr avlodi”, 2023-yil.
2. “A Stylistic Analysis of ‘after twenty years’ by O.Henry”⁶
3. “LitCharts” platformasi
4. “The Literature Page”
5. L.Latifiy-“Tarjima nazariyasi va amaliyoti”
6. A.Komilov-“Badiiy tarjima masalalari”

⁶ SHH Barzani – Turkish Online Journal of Qualitative Inquiry, 2021- researchgate.net